

XALQARO MUNOSABATLARDA O'ZBEKISTONNING RIVOJLANISH IMIDJI

Sobirov Akramjon Umarjon o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti "Siyosatshunoslik"

Yo'nalishi talabasi

Annatsiya: *21-asrga kelib samarali xalqaro munosabatlarni o'rnatish uchun mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirish har qanday zamonaviy davlatning strategik vazifasiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'rinib turibdiki bunda davlat faoliyatiga xalqaro bozordagi muvofaqqiyatli hamkorligiga bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy dunyoda mamlakat boshqa davlatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, ta'lim va axborot sohalarida hamkorlik qilmay turib rivojlana olmaydi. Davlatning imidji (qiyofasi) bu-dinamik hodisani aks ettiruvchi umumiy tushuncha bo'lib, u birinchi navbatda davlat maqsadi axborot siyosati natijasida yig'iladi. Davlat o'z imidjini yaratishda uning tabiiy omillari, tarixi, madaniyati, geografik joylashuvi, iqtisodiy va inson resurslarini mavjudligi, shuningdek, boshqa omillar ta'sirida shakllanadi hamda bu bilan birga u shaxsning muayyan joyda san'at yoki milliy-madaniy qadriyatlariga munosabati, taassuroti, tasavvur qiziqishining shakllanishi kabi subyektiv omillar bilan ham bog'liq.*

Davlat imidjini shakllantirishning eng muhim omili bu "Madaniy diplomatiya" hisoblanadi. Xorijda bu sohada ko'plab tadqiqotlar mavjud. Biroq bu sohada O'zbekistonda ilmiy tadqiqotlar yetarli bo'lmagan, shundan kelib chiqib ushbu maqolada O'zbekistonni samarali imidjini yanada rivojlantirish omillari va ahamiyatini o'rganildi.

Kalit So'zlar: *Madaniy diplomatiya, Samarali imidj, O'zbekiston imidji, Milliy madaniyat, Ommaviy Axborot Vositalari.*

Ma'lumki mamlakatlar o'zining samarali rivojlanish yo'lida xalqaro aloqalarni rivojlantirish borasida o'zining(mamlakatning) samarali imidj siyosati, iqtisodiyoti ijtimoiy-madaniy rivojlanish darajasidan kelib chiqib mamlakat ichida va xorijda olib borilayotgan muvofaqqiyatli siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va bunda davlat qiyofasini rivojlantirish yosh avlod uchun ulkan ma'naviy-ma'rifiy rol o'ynaydi. Mamlakatning ijobiy imidji uning raqobatbardoshligi, muvofaqqiyatligi, barqarorligi, sezgirligi, ichki va tashqi bozordagi siyosiy subyektlarning jozibadorlik darajasini belgilaydi. Biroq, jamiyatni jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi asosiy insoniy qadriyatlariga asoslangan milliy g'oyasiz davlatning barqaror qiyofasini shakllantirish mumkin emas.

Davlatning ijobiy imidjini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qarashlar mavjud. G'aybiy yevropalik olim J.Boden: "Davlatning tez fursatda rivojlanishi uchun davlatning ichki va tashqi siyosati mustaqil bo'lishi kerak",- degan. Bu fikri bilan mamlakatning yetarli darajada imidjini shakllantirish uchun davlatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy va tashqi jihatdan esa me'yoriy tashqi savdo aloqalari chegaralari daxlsizligi va shu kabilarni

nazarda tutgan edi. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonning sobiq Tashqi Ishlar Vaziri-Abdulaziz Komilov shunday deydi: "Tasvir-davlatning ichki va tashqi siyosatidir. Tasvir yaratish juda qiyin, har kuni davlatning kuchli imidjini yaratish uchun kuchli harakat qilish kerak". Bu esa xuddi qurilishda uyni jozibali va mustahkam qurishga o'xshaydi ya'ni davlat imidjini yaratish juda katta siyosatni amalga oshirish demakdir.

Darhaqiqat, tasvir tushunchasi universal tushuncha bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy axloqiy va madaniy jihatlar bilan bog'liqdir. Mamlakatning ijobiy imidjini rivojlantirishning asosiy omili - madaniy diplomatiyadir. Madaniy diplomatiya tushunchasi ikki so'z "madaniyat" va "diplomatiya" so'zlari birikmalaridan yuzaga kelgan, ikkisi ham muloqot shakllarini anglatadi, biroq vazifalari har xil bo'lib, aniqroq yondashadigan bo'lsak, diplomatiya an'anaviy tarzda yopiq eshiklar ortida muhokama va muzokaralardan iborat bo'lsa, madaniyat mohiyatan ochiq darvozalar va qizg'in muloqotlar maydonidir.

Madaniy diplomatiya tarixan yangi tushuncha bo'lishiga qaramay xalqaro munosabatlarda chuqur ildizga egadir. Madaniy diplomatiya ikki tomonlama munosabatlarni rag'batlantirish maqsadida madaniyatga oid g'oyalar, ma'lumotlar, qadriyatlar, tizimlar, an'analar, e'tiqodlar kabi bir qator omillar almashinuvida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda O'zbekistonning samarali qiyofasini shakllantirish uchun juda katta siyosat olib borilmoqda, bunga yaqqol misol qilib, O'zbekistonda turizmni jadal rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlarni olishimiz mumkin: O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoniga binoan respublikamizda 2019-2025-yillar oralig'ida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra: Viza rejimini liberallashtirish (erkinlashtirish), chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibini soddalashtirilishi turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va profensiyalar berilishi, milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkoniyatini beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizni yanada isloh qilish, rivojlantirish borasida chuqur islohotlar olib borilmoqda. Buning misolida birgina 2019-yil oxiriga ko'ra O'zbekistonga tashrif buyurga sayyohlar soni 6.748 million kishini tashkil etgan va 2018-yilning xos davriga nisbatan 125% ga ya'ni 5.346 million kishiga ko'pdir. Davlatimizga tashrif buyurgan sayyohlarning 6.260 million nafari MDH davlatlaridan 488.4 ming sayyoh esa olis xorij davlatlaridan tashrif buyurgan. 2019-yil turizm xizmatlarining eksporti 1.313 milliard AQSh dollarini tashkil etadi va 2018-yil bu davrga nisbatan 126% ya'ni 1.041 milliardga o'sgan. Bu islohotlar muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tomonidan ma'qullangan farmondan keyin faol amalga oshirildi.

Rivojlanib kelayotgan mustaqil yurtimizni xalqaro darajada samarali imidjini rivojlantirishda 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar Strategiyasi ham o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatgan, ammo O'zbekiston faol bozor iqtisodiyotiga kirisholmaganligi sababli shuningdek yurtimizni yanada rivojlantirish uchun 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" qabul qilindi. Bugungi kunda davlatimizning siyosiy imidjini jahon hamjamiyati standartlariga moslashtirish uchun bir qator chora tadbirlar olib borilmoqda. Bulardan biri: 2022-yil 26-maydan konstitutsiyaviy

islohotlarning start berilishidir. Buning natijasida 2023-yil 30-aprelda Respublikamizda referendum bo'lib o'tdi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamiz 90.21% (16 673 189) "ha" javob bilan yoqlab chiqildi. Undan muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 155 modda o'rin olgan.

XULOSA

Umuman olganda mamlakatlarning xalqaro munosabatlarda o'zining samarali imidjini rivojlanishi xalqaro reytingning yaxshilanishiga, mamlakatning siyosiy ta'siriga, investorlar ishonchiga, mahalliy mahsulotlar eksportining oshishiga turizmni rivojlantirishga, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Jamiyatdagi barqarorlik hayot sifatini yaxshilash, ko'pgina davlatlar xalqaro munosabatlarda o'zining ijobiy qiyofasini yaratish va rivojlantirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirib kelmoqda, shuningdek bugungi kunda bu holat tobora muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A'zamxonov S.X Inson kapitali bilan bog'liq tushunchalarning nazariy tahlili 247-254 -b <https://interonconf.org/index.php/den/article/view/2533>
2. Bahodir o'g'li I. M. Yoshlarning Ijtimoiy Faolligini Oshirish Jamiyat Rivojlanishining Omili Sifatida //Miasto Przyszłości. – 2022. – T. 24. – С. 521-523.
3. A'zamxonov S.X Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari | O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/1313>
4. Аликариев Н.С., Аликариева А.Н. Олий таълим сифати менежменти тизимини ривожлантириш концепцияси//“Социология фанлари” (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. №1. – Тошкент, 2020. – Б. 7-18. DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2020-1/>
5. Ахмедова Ф.М. Pandemiya davridagi ta'lim tizimi Журнал социальных исследований, 2020
6. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 5. – С. 469-473.
7. Mamadjanova, M. U. (2022). O 'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG 'ISHTIRMA TADQIQI. ANTONAMAZIYA EPITETLAR. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.
9. Tilavoldiyev, S., Madaliyev, R., & Komiljon o'g'li, Y. Q. (2022). MARKAZIY OSIYODAGI HARBIY-SIYOSIY VAZIYATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(18), 13-17.
10. Sh, T. (2022). General Didactic Principles of Pedagogical Technologies. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 6, 94-97.

11. Tilavoldiyev, S., & Madaliyev, R. (2022). UMUMTA'LIM O 'QUV YURLARIDA HARBIY-VATANPARVARLIK VA OMMAVIY-MUDOFAA ISHLARINI REJALASHTIRISH VA OLIV BORISH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 198-203.

12. ХОЛИҚОВ, I. (2022). РЕЗЕРВДАГИ ВА ЗАХИРАДАГИ ОФИЦЕРЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ ЦАХРАМОНЛАРИМИЗНИНГ УРНИ. *Vuxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali*, 2(2).

13. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Интернаука*, (21-3), 74-75.

14. Rahimkulovich, A. K. (2021, May). DEVELOPMENT OF MILITARY PATRIOTIC TRAINING IN STUDENTS OF UPPER EDUCATION ESTABLISHMENTS. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 100-101).

15. Yusupovich, M. K. (2021). THE PEDAGOGICAL NECESSITY OF THE FORMATION OF THE IDEA OF PEACE AND PROSPERITY OF THE COUNTRY IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 162-166.

- <https://www.cuberleninka.ru> websayt idagi ma'lumotdan foydalanildi
- <https://www.kun.uz> websatdan ma'lumot olindi
- <https://www.lex.uz> websaytidan foydalanildi
- <https://www.stat.uz> saytidagi ma'lumotlardan olindi